

UDK:636.082.11:636.083

SHVITS ZOTLI BUZOQLARNING O'SISH SUR'ATI

D.A. Tulqinov

SamVMChBU magistr

L.A. Xujanova

b.f.f. doktori (PhD) SamVMChBU assistent

O.I. Alimqulov

SamVMChBU talabalasi

M. M.Qodirova

SamVMChBU talabalasi

xujanovavalatofat81@gmail.com

ANNOTATSIYA: Maqolada, Shvits zotli sigirlardan olingen 3 oylik buzoqlarni zootehnikaviy me'yorlar asosida oziqlantirish va mikroiqlim ko'rsatkichlarini me'yorlashtirish orqali ularning o'sish va rivojlanish xususiyatlarini oshirish natijalari keltirilgan.

АННОТАЦИЯ: В статье представлены результаты повышения показателей роста и развития 3-месячных телят от коров швиц при кормлении их по зоотехническим нормам и нормализации параметров микроклимата.

ABSTRACT: The article presents the results of improving growth and development characteristics of 3-month-old calves from Schwitz cows by feeding them according to zootechnical standards and normalizing microclimatic indicators.

KALIT SO'ZLAR: to'yimli oziqalar, poda tarkibi, sof zotli, o'sish va rivojlanish, konsentrat oziqa, irsiyat, oziqlantirish me'yorlari.

KIRISH.

Yaratilgan zotlar va zot tiplarini mahsuldorlik va sifatiy ko'rsatkichlarini saqlab qolish uchun ular organizmiga ko'rsatilayotgan tashqi muhitning oziqaviy-iqlimiyl omillarining ta'sirini kompleks o'rGANISH talab etiladi. Chunki, irsiyat xo'jalik uchun

foyDALI belgilarni o‘zida saqlasa, oziqlantirish omillari ularni namoyon qiladi. Bugungi kunda iqtisodiy o‘zgarishlar jarayoni chorvachilik sektoriga chuqur ta’sir etib bormoqda. Natijasida chorvachilik sohasi ham yuzdan ortiq o‘zgaruvchan iqtisodiy islohatlarga muhtoj bo‘lib bormoqda. Ko‘p bosqichli xo‘jaliklarni tashkil etish hozirgi kunning talabi fermer xo‘jaliklari maxsulotini ishlab chiqarish qayta ishlash, saqlash va sotish kabi jarayonlarni o‘z qo‘llariga olishlari hamda haqiqiy mulk egalari bo‘lishi kerak. Tug‘ilgandan so‘ng darhol og‘iz suti bilan oziqlantirish sog‘lig‘iga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadigan va yangi tug‘ilgan buzoqlarning omon qolishini oshiradigan eng muhim omillardan biridir. Og‘iz suti bilan oziqlantirishdan sut bilan oziqlantirishga o‘tish oziqlantirish turini keskin o‘zgartirmasdan, silliq bo‘lishi kerak.

Buzoq kuniga tug‘ilgan vaznining 8-10 foizini sut bilan olishi kerak. Oziqlantirish kuniga ikki marta yangi tug‘ilgan buzoq vaznining 4-5% ga teng sut miqdori bilan amalga oshirilishi kerak. Og‘iz sutida qonda topilgan ko‘p miqdorda immunoglobulinlar mavjud. Bundan tashqari, u butun sutga qaraganda ko‘proq yog‘lar, oqsillar, minerallar va vitaminlarni o‘z ichiga oladi. Yog og‘iz sutidagi asosiy energiya manbai bo‘lib, etaricha past lakoza miqdori diareya xavfini kamaytirishga yordam beradi. Og‘iz suti yuqori darajada to‘yimli bo‘lishidan tashqari, yangi tug‘ilgan buzoqni hayotning dastlabki 2,5 haftasida qonda antikorlarning yuqori konsentratsiyasi bilan ta’minlaydi, bu esa 2,5 oylik pnevmoniya holatlarining keskin kamayishiga olib keladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Yangi turdag'i hayvonlarni o‘sish uchun sarflagan energiyasi mo‘l-ko‘l sut ishlab chiqarish, sut tarkibidagi yog‘ning yuqoriligi, mashinada sog‘ish uchun yaxshi yaroqliligi, tirik vazn ortishi, kasalliklarga chidamliligi va uzoq umr ko‘rishi bilan baholanadi. (Tamarova R.V., 2002).

Zotlar paydo bo‘lgan iqlimga o‘xshash bo‘limgan zonalarda nasldor hayvonlarga oid ko‘p miqdordagi faktik materiallarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ko‘p hollarda bu nomuvofiqlik mahsuldarlikning pasayishi, konstitutsianing zaiflashishi va hayvonlarning ko‘payishi bilan namoyon bo‘ladi. Kasalliklarga moyillik, hayvonlardan foydalanishning pasayishi va boshqa bir qancha foydali belgilarning

kamayishiga olib keladi. Bularning barchasi yangi sharoitlarda hayvon zotlaridan foydalanish samaradorligiga salbiy ta'sir qiladi (Stepanov D.V., Rodina N.D., 2006).

Sut ishlab chiqarishning sanoat texnologiyasi sharoitida moslashuvni baholash mezonlari quyidagilardan iborat: sigirlarning sut mahsuldarligining genetik salohiyatini royobga chiqarish darajasi va ekstremal stimullar ta'sirida ushbu darajaning saqlanishi; sog'lom naslni ko'paytirish qobiliyati; iqtisodiy foydalanish muddati; yuqumli va yuqumli bo'lmagan kasalliklarga moyillik kabi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi. (Rodionov Г.В., Христенко В.Т., 2010).

Qashqadaryo viloyati Kitob tumanidagi "Bosh buloq" MChJ ning, buzoqlarni oziqlantirish sharoitlarini tahlil qildik. Qashqadaryo viloyati Kitob tumani tog'laridagi o'tloqlar, biologik xilma-xillik bilan ajralib turadi. Yilning qulay ob-havo sharoitida fermer xo'jaligida parvarish qilinayotgan ushbu qoramollar yaylov larga haydab boqilganda ko'proq tabiiy sharoitda o'zi xohlagan oziqani iste'mol qilishi ularning o'sish va rivojlanishiga ijobiyligi ta'sir ko'rsatadi. Gipoksiya sharoitiga ham xo'jalik qoramollari yaxshi genetik-fiziologik moslashgan. Yosh buzoqlarning energiyaga va ozuqaviy moddalarga ehtiyojini aniqlashda modda almashunivining o'ziga xosligini, turli yoshdagi o'sish davrining intensivligini hisobga olmoq kerak. buzoqlarni boqish uchun o'sish rejasi, xo'jalikda bir bosh buzoq uchun emizishga mo'ljallangan sut miqdori xo'jalikning tabiiy va shart sharoitlarini hisobga olib ular uchun buzoqlarni boqish tizimi tanlandi. Bu tizimlardagi asosiy farq ularning o'rtacha kunli o'stilish, sarf qilinadigan sut va konsentrat ozuqalar miqdoriga bog'liq.

Tadqiqot obekti bo'lib sof zotli tabiiy urug'lantirish asosida tud'ilgan Shvits zotli o'rg'ochi buzoqlar nazorat va tajriba guruhlariga 10 boshdan analoglar usulida ajratildi. Ularning og'iz suti har ikkala guruhga bir xil me'yorda berildi, ammo nazorat guruhi xo'jalik sharoitida, tajriba guruhi esa 50% ozuqani adir-yaylovlardan foydalangan holda oziqlantirildi.

-buzoqlarni tirik vazni tarozida:

-xo'jalikning tabiiy-iqtisodiy sharoiti, oziqa bazasini tashkil etilganligi, zootexniyada umumqabul qilingan usullarda o'rganildi:

- foydalanilgan ratsionlar A.P. Kalashnikov va boshqalar [2003] tomonidan tayyorlangan detallashtirilgan oziqlanish normalari va ratsionlarida tavsiya qilingan normalar bo'yicha, barcha to'yimli moddalar bilan muvozanatlashtirilgan holda tuzildi.

1-guruh (nazorat guruhi) buzoqlarining ratsioni o'zlarining tarkibida yuqori miqdordagi lipidlarni saqlashi va past miqdordagi qand saqlashi bilan ajralib tursa, 2-guruh (tajriba guruhi) sigirlarining ratsioni yuqori miqdorda oqsil va kletchatka saqlashi bilan bir-biridan farq qildi.

NATIJALAR

Buzoqarning o'sish sur'atini aniqlash uchun, har oyda bir marta ularning tirik vazni aniqlab borildi. Buzoqlarni tarozida tortish ertalabki vaqtda oziqlantirishdan oldin o'tkazildi. Bu ko'rsatkich mutloq o'sishni tashkil etdi. Buzoqlarning o'rtacha kunlik o'sishini aniqlash uchun mutloq o'sish sur'ati kunlar soniniga bo'lish yo'li bilan aniqlandi. Xo'jaliklarda qabul qilingan oziqlantirish sxemalari va ratsionlari o'stirish rejasiga va oziqlantiish me'yoriga mos ravishda buzoqlarning o'sishi va rivojlanishini ta'minlaydigan bo'lmog'i kerak. Bunda sut va konsentratlar kabi qimmat narxli ozuqalarni tejab sarflash kerak. Tug'ilgandan keyingi 10-15 kun ichida buzoqlar uchun yagona ozuqa sut bo'lib, u bilan oziqlantirish hayvonning vazniga rejalshtirilgan sutkalik o'rtacha o'sishga bog'liq bo'ladi.

Biz o'tkazgan tajribada buzoqlarning o'sish sur'atini o'rganish asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi, chunki yosh organizmining o'sishi birinchi navbatda oziqlantirish darajasiga bog'liq bo'ladi.

1-jadval

Buzoqlarni oziqlantirish sxemasi (kg)

Buzoql ar yoshi	Nazorat guruhi					Tajriba guruhi				
	Xo'jalik sharoitida					Zootexnikaviy me'yor asosida				
	sof sut	beda pichani	makk a silosi	sabzi	omixta em	sof sut	beda pichani	makk a silosi	xasha ki lavlagi	omix taem

10 kun	5					5				
20 kun	5				0,1	5				0,1
30 kun	5				0,2	5				0,2
1 oyda	130				3	150				3
10 kun	5	0,3		0,1	0,2	5	0,3		0,1	0,2
20 kun	5	0,3		0,2	0,2	5	0,3		0,2	0,2
30 kun	5	0,4		0,3	0,2	5	0,4		0,3	0,2
2 oyda	150	10		6	6	150	10		6	6
10 kun	4	0,5	1	0,4	0,3	4	0,5	1	0,4	0,3
20 kun	3	0,6	1	0,5	0,3	3	0,6	1	0,5	0,3
30 kun	2	0,7	1	0,6	0,3	2	0,7	1	0,6	0,3
3 oyda	90	18	30	15	9	90	18	30	15	9
Jami	160	28	30	21	18	390	28	30	21	18

1-jadvalda tajriba jarayonida buzoqlarning tirik vaznining o‘zgarishlari qayd etilgan.

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, tajriba boshlanishdan oldin tajriba guruhdagi buzoqlarning o‘rtacha tirik vazni 31,9 kg tashkil etgan, nazorat guruhida esa 31,5 kg bo‘lgan. 30 kun davomida tajriba guruhidagi buzoqlarning o‘rtacha tirik vazni 50,3 kg ni tashkil etgan, ya’ni bir oy davomida ularning tirik vazni o‘rtacha 18,4 kg ga oshgan. Bunda buzoqlarning o‘rtacha kunlik o‘sishi 613 g ga teng bo‘lgan,

2-jadval

Buzoqlarning o‘sish sur’ati n=10

Buzoqlarning yoshi	NAZORAT GURUHI				TAJRIBA GURUHI			
	Tirik vazni, kg	Mutloq osish kg	O‘rtacha kunlik	Nisbiy o’sish, %	Tirik vazni, kg	Mutloq o‘sishi, kg	O‘rtacha kunlik o‘sishi, g	Nisbiy o‘sish, %

Tug'ilgand a	31,5 $\pm 0,26$	-	-	-	-	31,9 $\pm 0,28$	-	-	-
	1- oy	49,3 $\pm ,32$	17,8 $\pm 0,15$	59 3 ± 32	5 $6,5$	50,3 $\pm 0,33$	18,4 $\pm 0,16$	613 ± 34	49 $,3$
2- oy	68,4 $\pm 0,41$	19,1 $\pm 0,16$	63 6 ± 39	3 $8,7$	3 $9,4$	69,8 $\pm 0,43$	19,5 $\pm 0,18$	650 ± 36	68 $,8$
3- oy	88,5 $\pm 0,45$	20,1 $\pm 0,18$	67 0 ± 41	2 $9,4$	2 $9,4$	91,0 $\pm 0,46$	21,2 $\pm 0,20$	707 $\pm 0,42$	38 $,8$
90 kun	88,5	57,0	63 3	1 $24,6$	1 $24,6$	91,0	59,1	657	15 $6,3$

Nazorat guruhida buzoqlarning tirik vazni 31,5 kg 30 kundan so‘ng 49,3 kg ni tashkil etdi, ya’ni mutloq o‘sish 10,4 kg ga teng bo‘lib buzoqlarning o‘rtacha kunlik o‘sishi 613 g ni tashkil etdi. Ushbu ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, tajribaning 30 kundan so‘ng buzoqlarning mutloq o‘sishi tajriba guruhida nazorat guruhiga nisbatan 1,4 kg ga yuqori bo‘lgan, buzoqlarning o‘rtacha kunlik o‘sishi hisobiga 14 g ga yuqori bo‘lgan. Buzoqlarning 60 kundan so‘ng tirik vazni tajriba guruhida 91,0 ga etgan, ya’ni 30 kun davomida yana 21,2 kg ga oshgan, bunda buzoqlarning o‘rtacha kunlik o‘sishi 707 g ga teng kelmoqda. Ushbu ko‘rsatkich nazorat guruhida

88,5 kg bo‘lib buzoqlarning 30 kun davomida tirik vaznining mutloq o‘sishi 20,1 kg ni tashkil etgan, o‘rtacha kunlik o‘sishi hisobiga 670 g ga teng kelmoqda.

Buzoqlarning tirik vazni tajriba yakunida quyidagicha bo‘lgan: tajriba guruhida – 91,0 kg, nazorat guruhida esa 88,5 kg. Bunda 90 kun davomida buzoqlarning mutloq o‘sishi tajriba guruhida 59,1 kg, nazorat guruhida esa 57,0 kgni qayd etdi. Buzoqlarning o‘rtacha kunlik o‘sishi hisobiga tajriba guruhida 633 g, va nazorat guruhida esa 657 g teng bo‘lgan. Tajriba jaryonida yoki 90 kun davomida nazorat guruhdagi buzoqlarning mutloq o‘sishi tajriba guruhiga nisbatan 1,9 kg ga yuqori bo‘lganligi aniqlandi. Buzoqlarning o‘rtacha kunlik o‘sishi nazorat guruhida, ya’ni sun’iy sut bilan oziqlantirilmagan buzoqlarning kunlik o‘sishi, sun’iy sut bilan oziqlantirilgan buzoqlarga nisbatan 21 g ga yuqori bo‘lganligi qayd etildi.

MUHOKAMA Yuqorida qayd etilgan ma’lumotlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, shuni ta’kidlash joizki, buzoqlarning tajriba jarayonida o‘sish sur’ati tajriba guruhida nazorat guruhida nisbatan yuqori bo‘lganligi qayd etildi. Tajriba yakunida konsentrat oziqa sifatida sabzi qo‘llanilgan nazorat guruhi buzoqlari qand lavlagi bilan oziqlantirilgan tajriba guruhi buzoqlaridan o‘sish va rivojlanish ko‘rsatkichi bo‘yicha past natijani qayd etdi.

Shuni ta’kidlash joizki, buzoqlarning o‘sish sur’atlari tajriba guruhida, ya’ni to‘yimli bo‘lgan konsentrat oziqa bilan oziqlantirilgan buzoqlarda yuqori bo‘lganligi aniqlandi, buning sababini shunday tushuntirish mumkinki, tarkibida qand lavlagi bo‘lgan oziqa turi buzoqlarni dastlabki o‘sish davrida ularning immun sistemasini mustahkamlab, o‘sish va rivojlnishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

XULOSA. Tabiiy va zootexnikaviy me’yor asosida oziqlantirish sharoitida boqilgan qo‘sh maxsuldor Shvits zotli 90 kunlik buzoqlarni o‘sishi va rivojlanishi xo‘jalik sharoitida oziqlantirilgan guruhgaga nisbatan 2,1 kg ga yuqori bo‘ldi. Me’yor asosida tuzilgan oziqa tarkibi yuqori miqdorda kletchatka saqlashi bilan ustunlik qilib, 90 kunda o‘sish va rivojlanish ko‘rsatkichi nazorat guruhiga nisbatan 3,6% yuqori bo‘ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Н.И. Куликова., О.Н.Еременко., А.О. Малакова: Основы животноводство. Учебно методическое пособие. Краснодар. 2014. С-104.
2. А.Х. Дзодзаева., Р.З.Абдухаликов., М.К.Курмакова, Т.Т.Тарчаков: Особенности, роста телок Швицкой породы . Известия Кабардин Болгарской ГАУ. №3(33).2021г. С15-19.
3. Тамарова, Р. В. Создание нового типа ярославского скота «Михайловский» методом воспроизводительного скрещивания с использованием генофонда голштинской породы [Текст] / Р. В. Тамарова - Ярославль: ЯГСХА, 2002-186 с.
4. Степанов, Д. В. Экологический подбор в животноводстве [Текст] / Степанов Д. В., Родина Н. Д. - М.: Колос, 2006. - 432 с.
5. Родионов, Г. В. Экология и селекция сельскохозяйственных животных. Учебное пособие [Текст] / Родионов Г. В., Христенко В. Т. - Москва: Агроконсалт, 2002. - С. 65 - 162.
6. И.В.Беляева к.с.н. доцент, К.Ю. Хатамов ассистент Интенсивност роста развития телять и зависимости от времени их рождения Живодноводство Урал №5. 2013г. С-23-25.
7. В.М. Гутербок д.в.н., Принципы выращивания телят. Молочное и мясное скотоводство. №2. 05. 2013г.С-32-35.
8. I.Tursunov Buzoqlarni sog‘lom parvarishlaymiz. Zooveterinariya, №12, 2008 у.